



O'ZBEKISTONDA KITOB NASHRI VA SAVDOSI TIZIMINING RIVOJLANISH TARIXI

Gulnoza Iskandarova,

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Tarix kafedrası stajyor o'qituvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1799>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 35

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Markaziy Osiyo, O'zbekiston SSR, bosmaxona, nashriyot, yarmarka, marksistik matbuot, sovet, poligrafiya, inqilob, broshyura, savdo, matbuot

ANNOTATSIIYA/АННОТАЦИЯ

Mazkur maqola O'rta Osiyoda kitob nashri va kitob savdosi tizimining 1920-1950 yillardagi shakllanishi, rivojlanishi va tizimli o'zgarishlarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada shu davrlarda faoliyat yuritgan O'zbekiston davlat kitob palatasida shakllangan bibliografik ma'lumotlar, O'zbekiston Vazirlar Kengashi davlat bosmaxona qo'mitasining arxiv hujjatlari, O'zbekiston kitob savdosi assotsiatsiyasining arxiv materiallari, davriy matbuot materiallari, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi materiallari, Toshkent davlat universitetining ilmiy ishlari, "Pravda Vostoka", "Izvestiya" gazetasi "Советский Узбекистан сегодня" jumallari, kitob kataloglari va ilmiy adabiyotlar asosiy manba sifatida qo'llanildi. Kitobchilik sohasining taraqqiyoti tarixiy-xronologik, manbashunoslik, qiyosiy-tahliliy, tizimli yondashuv va kontent-tahlil usullari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada kitob nashri va savdosi tizimining alohida nashriyot yoki bosmaxona faoliyati sifatidagi emas, balki jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy va axborot ehtiyojlarini ta'minlovchi yaxlit tizim sifatida shakllanish jarayoniga e'tibor qaratiladi. Nashriyotlar, bosmaxonalar, kitob savdo tarmoqlari, kutubxonalar va matbaa mutaxassislari tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarning o'zaro aloqasi tarixiy izchillik asosida yoritiladi. Kitob mahsulotlarining mazmuni, nashr hajmi va tarqatish imkoniyatlaridagi o'zgarishlar orqali davlatning madaniy siyosati hamda axborot makonini boshqarish mexanizmlarining ta'siri ochib beriladi. Mazkur yondashuv O'zbekistonda kitobchilik sohasining tashkiliy tuzilmasi qanday shakllanganini, uning jamiyatdagi mavqeyi va faoliyat yo'nalishlari qaysi omillar ta'sirida o'zgarganini yaxlit tarixiy jarayon sifatida anglash imkonini beradi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 35

KEYWORDS

Central Asia, Uzbekistan SSR, book publishing, book trade, printing industry, publishing institutions, Soviet period, Marxist-Leninist literature, book distribution, periodical press

ANNOTATION

This study examines the formation, development, and systemic changes in the book publishing and book trade system in Central Asia during the 1920s–1950s. The study draws primarily on data from the State Book Chamber of Uzbekistan, archival documents of the State Printing Committee under the Council of Ministers of Uzbekistan, archival materials of the Uzbekistan Book Trade Association, periodical press materials, publications of the Academy of Sciences of Uzbekistan, scholarly works of Tashkent State University, the newspapers "Pravda Vostoka" and "Izvestiya," the journal "Советский Узбекистан сегодня," book catalogues, and relevant scholarly literature. The development of the book industry is analyzed through historical-chronological, source-critical, comparative-analytical, and systematic approaches, as well as content analysis. Particular attention is paid to the formation of the publishing and book trade system not merely as the activity of individual publishing houses or printing enterprises, but as an integrated system designed to meet the spiritual, educational, cultural, and informational needs of society. The interrelationship between publishing houses, printing enterprises, book distribution networks, libraries, and the training of printing specialists is examined in historical sequence. Changes in the content, volume of publications, and distribution opportunities of books are considered in relation to the influence of state cultural policy and mechanisms of information-space management. This approach makes it possible to understand the formation of the organizational structure of the book industry in Uzbekistan, as well as the factors that shaped its social position and areas of activity, as an integral historical process.

Kirish

1917-yilgi Oktyabr to'ntarishidan so'ng sovet hokimiyati tomonidan matbuot va nashriyot sohasi Kommunistik partiyaning mafkuraviy tazyiq hamda ommaviy targ'ibot-tashviqot quroliga aylantirildi. V.I.Lenin tomonidan ilgari surilgan "matbuotning partiyaviyligi" tamoyili va nashriyot ishini qat'iy markazlashtirish siyosati 1920–1950-yillarda O'zbekistonda matbuot-poligrafiya bazasini shakllantirish hamda kitob savdosini tashkil etishning konseptual va mafkuraviy asosini belgilab berdi. Shu nuqtai nazardan, ko'rilayotgan davrda sovet rejimining nashriyot sohasidagi siyosatini, kitob chop etishning shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlarini tarixiy manbalar va xolislik tamoyillari asosida tadqiq etish milliy matbuot tarixini haqqoniy baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda 1920-yillardagi keskin qog'oz va shrift tanqisligi hamda alifbo islohotlarining matbaachilikka ta'siri, 1930–1940-yillarda kitob savdosi va tarqatish tizimining markazlashgan holda yo'lga qo'yilishi, shuningdek, 1950-yillarda Moskvada o'tkazilgan xalqaro yarmarkalarda xorijiy mutaxassislar va tashrif buyuruvchilarning O'zbekiston ko'rgazmalariga bergan xolis baholari manbalar asosida atrofli tahlil etiladi.

Chor Rossiyasi mustamlakachilik tuzumi davrida Turkistonda matbuot va nashriyot ishi chor ma'muriyatining qat'iy syenzurasi hamda nazorati ostida olib borilgan bo'lib, asosan mustamlakachilik siyosatini

oqlashga va mahalliy aholining ma'rifiy yuksalishini cheklashga xizmat qildi. Shunga qaramay, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mintaqada ma'rifatparvar jadidlar tomonidan milliy ozodlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari suruvchi, aholining siyosiy va ijtimoiy ongini o'stirishga qaratilgan kitob hamda gazetalar nashr etila boshlandi. Tabiiyki, bu kabi millat fidoyilarining nashrlari mustamlakachi hokimiyat tomonidan taqiqlanib, musodara qilindi hamda ularning mualliflari va nashriyotchilari ta'qib ostiga olindi.

1917-yilgi Oktyabr to'ntarishidan so'ng hokimiyatni egallagan bolsheviklar mintaqada o'z siyosatini va kommunistik mafkurani targ'ib qilish maqsadida nashriyot ishini markazlashtirish yo'lini tutdilar. Markaziy Rossiyadan yuborilgan mafkuraviy adabiyotlar, risolalar va yo'riqnoma vositasida mahalliy aholi orasida kommunistik g'oyalarni singdirish hamda yangi tuzum mustahkamligini ta'minlash asosiy vazifa etib belgilandi.

Sovet hokimiyati tomonidan 1920-yillarda milliy chekkalarda, jumladan, Turkiston ASSRda va keyinchalik O'zbekistonda nashriyot va matbuot bazasini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Bu jarayonda tipografiyalari va poligrafiya quvvatlarini yaratishga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, buning zamirida milliy til va adabiyotni erkin rivojlantirish emas, balki kommunistik partiyaning sinfiy siyosatini amalga oshirish, aholini yagona sovet mafkurasiga atrofida birlashtirish kabi strategik vazifalar yotardi.

Shunday qilib, sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda kitob nashri va savdo tizimi murakkab hamda ziddiyatli yo'lni bosib o'tdi. Bir tomondan, poligrafiya bazasi shakllanib, savodxonlikni oshirishga qaratilgan ommaviy nashrlar ko'paygan bo'lsa, ikkinchi tomondan, nashriyot faoliyati totalitar tuzumning yagona sinfiy va mafkuraviy siyosatiga po'latdek bo'ysundirilgan vositaga aylantirildi.

XX asrning 1920–1950-yillari O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston tarixida kitob nashri, matbaa va kitob savdosi tizimining tashkiliy hamda institutsional jihatdan shakllanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Mazkur davrda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda yuz bergan tub o'zgarishlar matbaa-nashriyot faoliyatining mazmuni, tashkiliy tuzilmasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari va kitoblarni tarqatish mexanizmlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli kitobchilik tarixini faqat nashr etilgan adabiyotlar miqdori yoki alohida nashriyotlar faoliyati doirasida emas, balki nashriyot, bosmaxona, kitob savdosi, kutubxona va mutaxassislar tayyorlash tizimlarining o'zaro bog'liqligi asosida o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Tadqiq etilayotgan davrning dolzarbligi, avvalo, sovet hokimiyati tomonidan matbuot va nashriyot sohasining markazlashtirilishi hamda uning davlatning mafkuraviy va madaniy siyosati bilan chambarchas bog'langanligi bilan belgilanadi. 1920–1950-yillarda O'zbekistonda poligrafiya bazasining kengayishi, mahalliy tillardagi nashrlar hajmining ortishi, kitob savdo tarmoqlarining tashkil etilishi va aholining kitob bilan ta'minlanish imkoniyatlarining kengayishi bir tomondan, madaniy-ma'rifiy jarayonlarning rivojlanishiga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, nashriyot faoliyatining qat'iy mafkuraviy va ma'muriy nazorat ostida bo'lishi uning mazmuniy yo'nalishini belgilab berdi. Mazkur ikki tomonlama jarayonni tarixiy manbalar asosida kompleks tadqiq etish O'zbekiston kitobchilik tarixining murakkab va ziddiyatli jihatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

1930–1940-yillarda kitob savdosi va tarqatish tizimining markazlashuvi ham mavzuning dolzarbligini oshiradi. Nashr etilgan kitoblarning aholiga yetib borishi, savdo tarmoqlari orqali hududlarga tarqatilishi, yarmarkalar va boshqa savdo-madaniy tadbirlarning tashkil etilishi kitobchilik tizimining faqat ishlab chiqarish emas, balki tarqatish va iste'mol jarayonlarini ham qamrab olgan yaxlit tizim sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kitob savdosining tashkiliy mexanizmlari, hududiy qamrovi va uning nashriyot faoliyati bilan o'zaro aloqalarini tadqiq etish alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda milliy kitobchilik tarixini xolis va manbaviy asosda qayta o'rganish, sovet davrida shakllangan nashriyot va kitob savdosi infratuzilmasining tarixiy ildizlarini aniqlash hamda ushbu jarayonlarning jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy hayotiga ta'sirini baholash muhim ilmiy vazifalardan biridir. Shu jihatdan, 1920–1950-yillarda O'zbekistonda kitob nashri va kitob savdosi tizimining shakllanishi, rivojlanishi va institutsional o'zgarishlarini kompleks ravishda tadqiq etish naqat matbaa va nashriyot tarixini, balki XX asr O'zbekistonining madaniy, ijtimoiy va axborot tarixini yanada chuqurroq yoritishga imkon beradi. Mazkur holatlar tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili

O'zbekistonda kitob nashri, matbaachilik va kitob savdosi tarixini o'rganishda arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, ilmiy maqolalar, statistik nashrlar hamda alohida monografik va bibliografik tadqiqotlar muhim manbaviy asos vazifasini bajaradi. Mavjud adabiyotlarni mazmuni va ilmiy yondashuviga ko'ra tahlil qilish ushbu sohaning shakllanish bosqichlari, nashriyot muassasalarining tashkiliy tuzilishi, poligrafiya bazasining rivojlanishi va kitob tarqatish tizimining takomillashuvi haqidagi ilmiy qarashlarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, sovet davrida nashriyot ishining davlat tomonidan markazlashtirilishi va uning mafkuraviy vazifalar bilan uyviy bog'liqligini yorituvchi manbalar alohida ahamiyatga ega.

Mavzuga oid dastlabki manbalar qatorida O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi hujjatlari alohida o'rin tutadi. Arxiv materiallarida bosmaxona va nashriyot korxonalarining tashkiliy holati, moddiy-texnik ta'minoti, xodimlar masalasi hamda qog'oz va boshqa poligrafik resurslar bilan bog'liq muammolar aks etgan. Xususan, ayrim hujjatlarda sovet nashriyot tizimi shakllanayotgan dastlabki davrda bosmaxonalarning katta qismi eskirgan yoki ishdan chiqqan holatda bo'lgani, malakali kadrlar yetishmagani va qog'ozning markazdan keltirilgani qayd etiladi [1, 591-bet]. Boshqa arxiv materiallari esa nashriyot va poligrafiya tizimining tashkiliy boshqaruvi hamda davlat tomonidan nazorat qilinishining amaliy jihatlarini aniqlash uchun muhimdir [2, 57-bet]. Mazkur hujjatlar nashriyot tizimining shakllanishini faqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari asosida emas, balki uning moddiy, tashkiliy va ma'muriy shart-sharoitlari bilan birgalikda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Kitob nashri tarixini yoritishda statistik-bibliografik xarakterdagi nashrlar ham muhim o'rin egallaydi. Jumladan, “Печать СССР за 50 лет” nashrida Sovet Ittifoqi hududida, shu jumladan O'zbekistonda kitob va broshyuralar nashrining miqdoriy ko'rsatkichlari keltirilgan. Mazkur manbada O'zbekistonda uzoq vaqt davomida katta hajmda kitob va broshyuralar nashr etilgani haqidagi statistik ma'lumotlar beriladi [3, 168-bet]. Bunday ma'lumotlar nashriyot tizimining miqdoriy o'sishini aniqlash bilan birga, uning davlat miqyosida tashkil etilgan ishlab chiqarish tizimiga aylanganini ko'rsatishda ham muhimdir. Shu bilan birga, statistik ko'rsatkichlarni nashr mazmuni va uning ijtimoiy-mafkuraviy yo'nalishi bilan bog'lab o'rganish zarur, chunki kitoblar sonining ortishi nashriyot faoliyatining mazmuniy jihatdan mustaqilligini avtomatik ravishda anglatmaydi.

Markaziy Osiyoda davlat nashriyot tizimining shakllanishini o'rganishda 1920-yillar boshlariga oid materiallar alohida ahamiyat kasb etadi. “Среднеазиатский госиздат” faoliyatiga oid materiallarda Buxoro va Xorazm hududlarida nashriyot bo'limlarini tashkil etish masalalari yoritilgan. Ushbu ma'lumotlar Turkiston davlat nashriyotining faoliyati keyinchalik mintaqaviy miqyosga kengayganini va O'rta Osiyoda markazlashgan nashriyot tizimini shakllantirish jarayoni boshlanganini ko'rsatadi [4]. Shu jihatdan mazkur manba Markaziy Osiyoda kitob nashri geografiasining kengayishi va nashriyot muassasalarining hududiy qayta tashkil etilishi masalasini tadqiq etishda muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Z. Yuldashevning 1958–1967-yillardagi kitob nashriyoti rivojiga bag'ishlangan dissertatsiya avtoreferatida ushbu sohaning tarixiy taraqqiyoti va nashriyot tizimining shakllanishiga oid masalalar tahlil qilingan [5, 7-bet]. Mazkur ishning ahamiyati shundaki, unda kitob nashriyoti tarixini alohida ilmiy muammo sifatida o'rganishga bo'lgan dastlabki tizimli yondashuvlardan biri kuzatiladi. Shu bilan birga, tadqiqotning sovet davri ilmiy-metodologik muhitida yaratilgani sababli undagi baholashlarda o'sha davrning mafkuraviy qarashlari ham aks etgan bo'lishi mumkin. Shu sababli bunday manbalarni zamonaviy tarixshunoslik yondashuvlari bilan qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Davriy matbuot materiallari ham O'zbekistonda kitob nashri tarixini o'rganishda muhim manba qatlamini tashkil etadi. Xususan, “Правда Бокрока” gazetasida 1940–1950-yillarda bolalar kitoblari, ilmiy-ommabop adabiyotlar, tarjima nashrlari, yubiley adabiyotlari va V.I. Lenin asarlarining o'zbek tilida nashr etilishi kabi masalalarga bag'ishlangan materiallar chop etilgan [6; 7; 8; 9; 11]. Ushbu maqolalar nashriyot faoliyatining o'sha davrdagi ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, nashr mavzularining ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va mafkuraviy yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishi kitob nashrining davlat siyosati bilan bog'liqligini ko'rsatadigan muhim dalillardan biridir.

1950-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekistonda kitob nashri, matbaa va kitob savdosi tarixini umumlashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ko'paydi. Bu davrda nashriyotlar va matbaa korxonalarining faoliyatiga oid ilmiy-amaliy hamda statistik materiallar nashr etila boshlagan. S. Medvedeva va F. Baybekovning o'zbek tiliga tarjima qilingan rus ijtimoiy-siyosiy adabiyotlariga bag'ishlangan materiali ham shu yo'nalishdagi ishlardan biri bo'lib, tarjima adabiyotlarning nashriyot tizimidagi o'rini ko'rsatadi [12]. Bunday materiallar orqali kitob nashri jarayonida tarjima, tahrir, nashr va tarqatishning o'zaro bog'liqligini kuzatish mumkin.

G.N. Chabrovning O'zbek kitobi tarixini o'rganish muammolariga bag'ishlangan ishlari esa mavzuning tarixshunoslik asoslarini kengaytirgan tadqiqotlar qatoriga kiradi. Muallif O'zbekistonda kitob tarixini o'rganishning ilmiy muammolarini ko'tarib, mavjud manbalarni tizimlashtirish va nashriyot jarayonining tarixiy xususiyatlarini aniqlashga e'tibor qaratgan [13]. Keyingi tadqiqotlarda uning qarashlari yanada rivojlantirilib, O'zbekistonda kitob nashriyoti va kutubxonachilik ishining tarixiy jihatlarini umumlashtirilgan [14]. Bu ishlar nashriyot tarixini alohida korxonalar faoliyati bilan cheklab qolmasdan, uni kutubxona, kitob savdosi va kitobxonlik jarayonlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Turkiston ASSR davrida kitob nashriyotining shakllanishi masalasida F.N. Rojinskaya hamda P.U. Hamdamovning ishlari muhim o'rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida Turkiston ASSR hududida nashriyot ishining paydo bo'lishi va rivojlanishiga oid ayrim jarayonlar yoritilgan [15; 16]. Mazkur tadqiqotlar dastlabki sovet nashriyot muassasalarining tashkil etilishi, ularning faoliyat yo'nalishlari va mintaqadagi nashriyot tizimining umumiy shakllanish jarayonini tushinishda muhim manbaviy asos yaratadi.

T.N. Qori-Niyoziyning ilmiy merosida ham Sovet O'zbekistoni madaniyati, fani va matbuoti tarixiga oid muhim ma'lumotlar mavjud.

[17]. Mazkur ishlar kitob nashrini faqat texnik yoki iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki jamiyatning madaniy va ilmiy hayoti bilan bog'liq holda o'rganish uchun imkon beradi.

Matbaa sanoatining moddiy-texnik bazasi tarixini o'rganishda I. Shagulyamov va T. Pidayevning "O'zbekistonda matbaa texnika bazasining ravnaqi" nomli ishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Mualliflar respublika matbaa sanoatining shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, matbaa mutaxassislarini tayyorlash masalalarini yoritgan [18]. Biroq ushbu ishning asosiy e'tibori davriy matbuotning texnik bazasiga qaratilganligi sababli kitob nashriyoti, ayniqsa kitob ishlab chiqarish va uning savdo-tarqatish tizimi masalalari yetarli darajada batafsil ochib berilmagan. Shu sababli mazkur manbani kitob nashri tarixini yorituvchi boshqa hujjatlar bilan birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

A.A.Aleksandrovskiyning O'zbekiston SSR poligrafiya sanoatini rivojlantirishning yetti yillik rejasiga bag'ishlangan materiali esa sohaning iqtisodiy-tashkiliy va texnik rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini beradi [19]. Ushbu manba poligrafiya korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnik bazani mustahkamlash va nashriyot mahsulotlari hajmini oshirish bilan bog'liq davlat rejalashtirish siyosatini o'rganishda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning yana bir muhim qatlami 1970-yillardagi xalqaro kitob ko'rgazmalari va O'zbekiston kitob mahsulotlarining xalqaro miqyosda namoyish etilishiga oid materiallardan iborat. "Советский Узбекистан сегодня" jurnalining 1978-yildagi materiallarida O'zbekistonning xalqaro kitob yarmarkasidagi ishtiroki, respublikadagi nashriyotlar, bosmaxonalar, kitob do'konlari va kutubxonalar soni haqida ma'lumotlar keltiriladi [20]. Ushbu materiallar O'zbekiston kitobchilik tizimining keyingi bosqichdagi institutsional kengayishini ko'rsatishi bilan birga, sovet davrida nashriyot mahsulotlarining xalqaro madaniy targ'ibot vositasi sifatida qo'llanilganini ham kuzatish imkonini beradi.

Metodologiya

Maqolada O'zbekistonda kitob nashri va savdosi tizimining shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlarini o'rganishda tarixiy-xronologik, manbashunoslik, qiyosiy-tahliliy va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tarixiy-xronologik metod orqali nashriyot va kitob savdosi tizimidagi o'zgarishlar davrlar kesimida tahlil qilindi. Manbashunoslik usuli arxiv hujjatlari, davriy matbuot va statistik materiallarning mazmunini o'rganishga, qiyosiy-tahliliy metod esa turli manbalardagi ma'lumotlarni o'zaro solishtirishga xizmat qildi. Shuningdek, kontent-tahlil asosida kitob nashri, bosmaxona, kitob savdosi va tarqatish bilan bog'liq ma'lumotlar tizimlashtirildi.

Natijalar

Qiyosiy tahlillar kitob nashri va savdosi rivojida statistik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, hududiy, ijtimoiy va madaniy omillar ham muhim ahamiyat kasb etganini ko'rsatdi. Kitobchilik tizimi "muallif-nashriyot-bosmaxona-kitob savdosi-kutubxona-kitobxon" zanjiridagi o'zaro bog'liq jarayonlar majmui sifatida shakllangan. Shu bilan birga, sovet davrida kitob nashri va tarqatish jarayonlari mafkuraviy nazorat ostida bo'lgani, nashr mazmuni va adabiyotlarning tarqatilishi davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1920-30 yillarda O'rta Osiyoda kitob nashri va kitob tarqatish tizimining dastlabki tashkiliy asoslari shakllangan. Bu davrda nashriyotlar, bosmaxonalar va kitob savdosi muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilib, aholini ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va ma'rifiy adabiyotlar bilan ta'minlashga e'tibor kuchaygan. 1940-50 yillarga kelib, kitobchilik sohasi yanada markazlashib, nashriyot va kitob savdosi faoliyati davlat nazorati hamda yagona ma'muriy tizim asosida tashkil etilgan. Keyingi yillarda esa kitob nashri hajmi, adabiy-ma'rifiy nashrlar turi, bolalar uchun adabiyotlar, kitob do'konlari va tarqatish tarmoqlari kengayib, kitobchilik sohasi nisbatan barqaror tizimga aylangan.

1918-yil yanvar oyida qabul qilingan "Davlat nashriyoti to'g'risida"gi Sovet farmoniga muvofiq Turkiston kommunistlari kitob sanoatini tashkil qila boshladilar. 1918-yil mart oyida mintaqaning bosmaxonalarini milliyalashtirish boshlandi. Nashriyotlar markistik bosmaxonaning asosiy, mustahkam tamoyiliga - yuqori partiyaviylikka asoslanib qurildi. Mintaqada paydo bo'layotgan nashriyot tizimining shakllari, asosan Rossiyaning markaziy nashriyotlari bilan bir zamonda bo'lsa-da, Markaziy Osiyoda milliy-davlat va partiya qurilishining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Birinchi sovet nashriyotlarining paydo bo'lishi qiyin sharoitlarda sodir bo'ldi. Bosmaxonalarining 75% buzilgan yoki eskirgan, [1] kadr xodimlar yetishmas edi, qog'oz markazdan olib kelinardi. [2].

1920-yil mart oyida Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Markaziy Osiyodagi birinchi kitob nashriyoti bo'lgan Turkiston davlat nashriyotini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. 1923-yilda uchta sovet respublikasi - Turkiston, Buxoro va Xorazmning iqtisodiy birlashishi munosabati bilan Turkiston davlat nashriyoti butun Markaziy Osiyoga xizmat ko'rsata boshladi va O'rta Osiyo davlat nashriyotiga (Sredgosizdatga) aylantirildi.

O'rta Osiyoning milliy-davlat chegaralanishi va yangi Sovet milliy respublikalarining shakllanishi natijasida O'rta Osiyo davlat nashriyoti yangi hududiy bo'linishlarga muvofiq qayta tashkil etildi va ushbu respublikalarning davlat nashriyotlari tashkil etildi. O'zbekiston Davlat nashriyoti, hozirgi "O'zbekiston" nashriyoti, 1925-yilda tashkil etilgan. [3]. Tashkil etilishining ilk yilidayoq u bir million nusxaga yaqin kitob nashr etdi. Bu O'zbekistonda kitob nashriyotining dastlabki qadamlari edi.

Sovet hokimiyati yillarida u uzoq va qiyin yo'lni bosib o'tdi. Leninning milliy "siyosati" tufayli nashriyot faoliyatining muvaffaqiyatli rivojlanishi, yangi tizim g'alabasi uchun ishchilarning kurash vositasiga aylangan kitoblarni nashr etish uchun sharoitlar yaratildi. 50 yil ichida O'zbekistonda 578,5 million nusxada 51 991 ming kitob va broshyuralar nashr etildi. [4].

O'zbekistonda kitob nashr etishni o'rganish tarixi fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Hozirgacha bu masala kam o'rganilgan, garchi bu mavzu bo'yicha adabiyotlar 1930-yillarda paydo bo'la boshlagan bo'lsa ham. Bular asosan ommabop ilmiy ruhda yozilgan va bag'ishlangan jurnal va gazeta maqolalari edi. Bular asosan ilmiy-ommabop ruhda yozilgan va yubileylarga bag'ishlangan jurnal va gazeta maqolalari edi. [5].

Ular orasida I. G'iyosxo'jayevning O'zbekiston Davlat nashriyotining 10 yilligi (1925-1935 y.) haqidagi maqolasi alohida ajralib turadi. Unda nashriyot sohasida to'plangan tajribani umumlashtirish va uni yanada muvaffaqiyatli rivojlantirish yo'llarini belgilashga harakat qilinadi.

Urush va urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda kitob nashriyoti tarixidagi muayyan masalalarga bag'ishlangan bir nechta asarlar, asosan gazeta maqolalari nashr etildi. Sarlavhalarining qisqacha ro'yxati ularning mohiyati, maqsadi va yo'nalishini aniqlashga imkon beradi: "O'zbekistonda bolalar kitoblari" [6], "Karl Marksning o'zbek tilidagi ikki jildli asarlar to'plami"[7], "Tasviriy san'at bo'yicha yangi kitoblar"[8], "Yubiley adabiyotini nashr etish"[9], "V.I. Leninning asarlarini O'zbekistonda nashr etish" (1918-yildan beri nashr etilgan asarlarning umumiy sharhi) "O'zbekistonda kitoblar tarixidan"[10], "Ilmiy-ommabop adabiyotlarni nashr etishga ko'proq e'tibor"[11] va boshqalar.

Bu davr nashrlari orasida E.K. Betgering "Tarixdan" maqolasi jiddiy ilmiy asar bo'lib, 1951-yilda "O'zbekiston Fanlar akademiyasi Izvestiyasi"ning ikkinchi sonida nashr etilgan. Unda ko'rib chiqilayotgan mavzuning asosiy muammolari bayon etilgan va bir qator yangi materiallar ilmiy muomalaga kiritilgan.

XX asrning 50-yillari ikkinchi yarmiga kelib O'zbekistonda kitob nashri va matbaachilik sohasi tarixini tadqiq etishda muayyan jonlanish kuzatildi. Bu jarayon sovet tuzumining 40 yillik yubiley sanasiga tayyorgarlik doirasida amalga oshirilgan mafkuraviy va ilmiy-ommaviy tadbirlar bilan bevosita bog'liq edi. Ushbu davrda nashriyotlar o'z mavzular doirasini sezilarli darajada kengaytirib, sovet hokimiyati yillarida respublikada shakllantirilgan nashriyotlar, matbaa korxonalari va kitob savdosi tizimi faoliyatini umumlashtiruvchi ilmiy-amaliy hamda statistik materiallarni nashr etdilar. [12]

Yaqinda nashr etilgan asarlar ham asosan kitob nashriyoti, matbaa va kitob savdosi tarixiga bag'ishlangan. Ular orasida G.N. Chabrovning tadqiqotlarining yuqori ilmiy darajasini ta'kidlash kerak; [13]. uning ko'p yillik tadqiqotlari yaqinda "Inqilobiy Markaziy Osiyodan oldin kitob nashriyoti"[14] maqolasida umumlashtirildi. Turkiston ASSRda kitob nashriyotining paydo bo'lishi va rivojlanishi P. U. Hamdamovning maqolasi va broshyuralarida [16], F.N. Rojinskayaning maqolasida yoritilgan[15]. Shuningdek, u O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy adabiyotning yaratilish tarixini rivojlantirishni boshladi.

O'zbekistonda kitob tarixiga bag'ishlangan eng so'nggi tadqiqotlardan biri M. Rustamovning "O'zbek kitobi" asaridir. U hozirgi O'zbekiston hududida nashriyotning keng davrini qamrab oladi: O'rta Osiyoning qo'shilishidan tortib hozirgi kungacha. Tabiiyki, bitta kichik kitobda (7 bet) muallif barcha masalalarni yoritishda qiynalgan: ba'zi masalalar ko'proq yoki kamroq batafsil yoritilgan, boshqalari esa faqat ko'rib chiqilgan. Mavzuning ayrim jihatlarini sosializm qurish va urush yillarida kitob nashriyotiga bag'ishlangan boblarda batafsilroq muhokama qilinadi. T. N. Qori-Nijozovning "Ocherklar" fundamental

asaridagi Sovet matbuoti haqidagi bo'lim diqqatga sazovordir. Sovet O'zbekistoni madaniyati va fan tarixi. [17].

So'nggi yillarda respublika bosmaxona sanoatining rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotlar paydo bo'ldi. Bularga "O'zbekistonda bosmaxona texnik bazasini rivojlantirish"[18], "O'zbekiston SSR matbaa sanoatini rivojlantirishning yetti yillik rejasi"[19] va boshqalar. "O'zbekistonda matbaa texnik bazasini rivojlantirish" asarining mualliflari I. Shagulyamov va T. Pidayev respublika matbaa sanoatining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini, shuningdek, matbaa mutaxassislarini tayyorlash va rivojlantirishni batafsil bayon qiladilar. Biroq, ushbu broshyura asosan davriy nashrlarni rivojlantirishga bag'ishlangan; respublika matbaa sanoatining, ayniqsa kitob sanoatining rivojlanishi va holati haqida deyarli hech narsa aytilmagan.

O'zbekistonda kitob nashriyoti va matbaachilik sohasiga oid mavjud tarixshunoslik manbalarining tahlili shuni ko'rsatadi, chor mustamlakachilik davridagi nashriyot ishi ahvoli, shuningdek, sovet hokimiyati va Ikkinchi jahon urushi yillarida Turkiston ASSR hamda O'zbekistonda kitob nashri tizimining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bir qator masalalar tadqiqotchilar tomonidan muayyan darajada atroflicha yoritilgan. Bundan kelib chiqadiki, O'zbekistonda kitob nashriyoti tarixi, ayniqsa zamonaviy davr, chuqur o'rganilmagan. Yuqorida muhokama qilingan mavjud alohida broshyuralar va maqolalar respublikada umuman kitob nashriyotining rivojlanishi xususan, hozirgi bosqichda to'liq tasavvur bermaydi.

1977-yilning kuz oyida Moskvada birinchi Xalqaro kitob yarmarkasi bo'lib o'tdi. Ko'rgazmaning shiori "Kitoblar tinchlik va taraqqiyot xizmatida" edi. Ushbu keng ko'lamli ko'rgazmada 60 dan ortiq mamlakatdan qariyb 1300 ta kompaniya ishtirok etdi. Ko'rgazma doirasida vakil qilingan sotsialistik bloklarga kiruvchi mamlakatlar o'zlarining rang-barang va keng ko'lamli adabiyotlar ekspozitsiyalarini namoyish etdilar. Asosiy ko'rgazma ishtirokchilari orasida 193 ta konsyern va kompaniyaning bosma materiallarini namoyish etgan Germaniya va 115 ta kompaniyaning nashrlarini namoyish etgan Ispaniya bor edi. Yigirma beshta nashriyot va kitob savdosi tashkilotlari Qo'shma Shtatlardan kitoblar olib kelishdi. Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya, Finlyandiya, Hindiston, Jazoir va boshqa ko'plab mamlakatlar keng ko'lamli ko'rgazmalarni namoyish etdilar.

Shubhasiz, ko'rgazmaning eng katta bo'limlaridan bu- Sovet davriga qarashli bo'lim edi. Uning hajmi, birinchidan, kitoblar ko'rgazmasi o'tkaziladigan joy SSSRning hududi ekanligi; ikkinchidan SSSR dunyodagi eng yirik kitob nashr etuvchi davlat ekanligi bilan belgilangan. Sovet Respublikasida har yili 1,7 milliarddan ortiq kitob va broshyuralar nashr etiladi.

Sovet bo'limida nafaqat mamlakat markaziy nashriyotlarining, balki O'zbekistonni ham o'z ichiga olgan barcha 15 ta ittifoq respublikalarining nashriyotlarining kitoblari namoyish etildi. Respublika ko'rgazmasi Sovet davrida sotsialistik O'zbekistonning misli ko'rilmagan gullab-yashnashi va taraqqiyotini yaqqol namoyish etdi.

1978-yilda respublikada o'nta kitob nashriyoti, 118 ta zamonaviy bosmaxona, 2500 dan ortiq kitob do'koni va 90 million nusxadan ortiq kitoblar to'plamiga ega 13000 ta kutubxona mavjud. Respublikada har yili 40 milliongacha kitob va broshyuralar nashr etiladi.

Xalqaro ko'rgazma va yarmarkada O'zbekiston ko'plab kitoblar, albomlar, broshyuralar, plakatlari va kitob grafikasi namunalari namoyish etdi. G'afur G'ulom, Oybek, Komil Yashin, Hamid Olimjon va Uyg'unning asarlarini o'z ichiga olgan "Lenin haqida shoir-olimlar" miniatyura kitobi taqdim etildi. Ko'rgazma tashrifchilarida o'zbek adabiyoti namoyandasi Hamza Hakimzoda Niyoziyning sovet tuzumi va 1917-yilgi hokimiyat almashinuvi voqealarini targ'ib qiluvchi "Sovetlar yashasin!" nomli asarlari to'plami alohida qiziqish uyg'otdi. O'zbekistonning kurgazmalari hech kimni befarq qoldirmadi, bunga kitob haqidagi sharhlardagi ko'plab sharhlar ham guvohlik beradi.

Vyetnamlik muhandis Dang Triong shunday deb yozgan: "Ajoyib ko'rgazma! Unda O'zbekistonning Sovet hokimiyatining 60 yilligi davomidagi rivojlanishi ajoyib tarzda tasvirlangan".

Belarus Xalq Respublikasi Mualliflik huquqi agentligi bosh direktori T. Ivanov quyidagi izohni qoldirdi: "Men O'zbekiston bo'limidan juda mamnunman. Ko'rgazma chiroyli bezatilgan. Uning ranglari rang-barang

milliy bezakni eslatadi. Kitoblarning o'zi esa respublika xalqi va uning tabiati haqida ajoyib hikoyadir".

Yaponiyadan kelgan mehmon Tadashi Okubo shunday deb yozgan: "Ko'rgazma juda qiziqarli. Men o'zbek yoki rus tillarini bilmasligim achinarli". Mana yana bir yozuv, biz O'zbekiston xalqaro kitob yarmarkasidagi eksponatlar haqidagi qisqa hikoyamizni yakunlaymiz: "Bizga sizning ajoyib "Toshkent", "Buxoro", "Samarqand" kitoblaringiz juda yoqdi. Ular ajoyib taassurot qoldirdi va bizda O'zbekistonga tashrif buyurishni xohladi. Nensi Kondel, AQSH." [19]

Muhokama

Tadqiqot natijalarining muhokamasi shuni ko'rsatadi, 1920-1950 yillarda O'zbekistonda kitob nashri va savdosining rivojlanishi bosqichlari mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar xronologiyasi bilan chambarchas bog'liq holda kechgan.

Birinchi bosqich - Sovet nashriyotlarining paydo bo'lishi va ularning fuqarolar urushi davridagi faoliyati (1917-1920). Bu bosqich, o'z navbatida, ikki davrga bo'linadi: birinchisi - Sovet nashriyotlarining paydo bo'lishidan (1918) Davlat nashriyoti tashkil etilishigacha (1920).

Ikkinchisi - Davlat nashriyoti tashkil etilishidan fuqarolar urushi tugaguniga qadar. Keyingi bosqich milliy iqtisodiyotning tiklanishi yillariga to'g'ri keladi va 1921-1925 yillarni qamrab oladi - Sovet nashriyotlari NEP (Yangi iqtisodiy siyosat) davrida nafaqat urushdan oldingi kitob nashriyoti darajasiga yetib borgan, balki ko'p jihatdan ulardan oshib ketgan yillar. Sotsializmning iqtisodiy poydevorini qurish uchun kurash davri (1926-1932) nashriyot sanoati uchun o'ziga xos edi. Bu davrda nashriyot tizimi sotsializmning "butun frontda" to'liq ko'lamli hujumi talablariga muvofiq yangi tubdan qayta qurishdan o'tdi. 1933-yildan urush boshlangunga qadar nashriyot sotsializmning jadal qilinishi, sotsializmning g'alabasi va kommunizmga bosqichma-bosqich o'tish davrida rivojlandi. Urush davrida nashriyotchilarning ishi alohida bosqichni tashkil etdi.

Sovet hokimiyati yillarida mamlakatimizda kitob nashriyotining rivojlanishining asosiy bosqichlari ijtimoiy rivojlanish bosqichlari bilan taqqoslanadi. Birinchi bosqich - Sovet nashriyotlarining paydo bo'lishi va ularning fuqarolar urushi davridagi faoliyati (1917-1920). Bu bosqich, o'z navbatida, ikki davrga bo'linadi: birinchisi - Sovet nashriyotlarining paydo bo'lishidan (1918) Gosizdat tashkil etilishigacha (1920) va ikkinchisi - Gosizdat tashkil etilganidan fuqarolar urushi tugaguniga qadar. Keyingi bosqich milliy iqtisodiyotning tiklanish yillariga to'g'ri keladi va 1921-1925 yillarni qamrab oladi - Sovet nashriyotlari NEP (Yangi iqtisodiy siyosat) davrida nafaqat urushdan oldingi kitob nashriyoti darajasiga yetib borgan, balki ko'p jihatdan ulardan oshib ketgan yillar. Sotsializmning iqtisodiy poydevorini yaratish uchun kurash davri (1926-1932) nashriyot uchun ayniqsa muhim davr bo'ldi.

Bu davrda nashriyot tizimi sotsializmning "butun frontda" to'liq ko'lamli hujumi talablariga muvofiq yangi tubdan qayta qurishdan o'tdi. 1933-yildan to ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar bo'lgan davrda O'zbekistonda nashriyot va matbaachilik sohasi totalitar sovet tuzumining sanoatlashtirish, jamoalashtirish hamda total mafkuraviy nazoratni o'rnatish siyosati fonida rivojlandi. Ikkinchi jahon urushi davrida esa nashriyotlar va matbaa korxonalari faoliyati front va harbiy ehtiyojlarga to'liq bo'ysundirilgan holda alohida spesifik bosqichni tashkil etdi. 1945-yildan 1958-yilgacha nashriyot faoliyati "urushdan keyingi tiklash va SSSR xalq xo'jaligini yanada rivojlantirish vazifalariga muvofiq" kengaytirildi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, SSSR davrida kitob nashri va matbuot sohasining rivojlanishi jamiyatning madaniy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutgan. Bu davrda nashriyotlar tarmog'i kengayib, kitob va broshyuralar nashri tobora ortib borgan. Sovet Ittifoqi jahon miqyosida eng yirik kitob va poligrafiya mahsulotlari ishlab chiqaruvchi davlatlardan biri bo'lib, mamlakatda har yili millionlab nusxada kitob hamda risolalar chop etib borilgan. Ushbu yuqori miqdoriy ko'rsatkichlar totalitar davlatning madaniy va ma'rifiy siyosatida kitob nashri hamda ommaviy matbuotga aholini mafkuraviy shakllantirish va nazorat qilishning strategik vositasi sifatida ustuvor ahamiyat qaratganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ЦГА УзССР ф.17, оп 1, д 1070, стр. 591
2. ЦГА УзССР Ф. Р-94, оп.1, д.272, л 57.
3. Печать СССР за 50 лет, М. 1967 стр 168.
4. Среднеазиатский госиздат (об организации отделений в Бухаре и Хоразме)-«Народное хозяйство Средней Азии» 1924, №1

5. Юлдашев.3 «Из истории развития книгоиздательского дела в Узбекистане»(1958-1967г.г) диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук.автореф.-Т.,1969, стр 7.
6. "Правда Востока", 1943г. 6-октября, № 207 (6295).
7. "Правда Востока", 1944г. 7-апреля, № 69 (6424).

8. "Правда Востока", 1950г. 7-января, № 5 (7905).
9. "Правда Востока", 1950г. 22-апреля, № 94 ((7994).
10. «Известия АН Узбекской ССР» 1951, № 2
11. "Правда Востока", 1952-йил 22-феврал, 2-сон, 45-бет (8557).
12. С. Медведева ва Ф. Байбеков. "Русская общественно-политическая литература в узбекских переводах". "Звезда Востока", 1953, № 3;
13. Г.Н. Чабров. Проблема изучения истории узбекской книги. Научные труды ТашГУ, вып.261,1964.
14. Из истории книгоиздательского и библиотечного дела в Узбекистане. Учёные записки Ташкентского педагогического института им.Низами, т.71, Ташкент, «Фан», 1966.
15. Из истории книгоиздательского дела в Туркестанской АССР на узб.языке. Сб. «Печать Узбекистана за 50 лет», Тошкент 1967.
16. Т. Н. Кары-Ниязов. Избранные труды, т. V., Ташкент, "Фан", 1967.
17. И.Шагулямов, Т.Пидаев. "Ўзбекистонда матбуот техника базасининг равнақи", Ташкент, Объединённое издательство ЦК КП Узбекистана, 1965й.
18. А.Александровский Семилетний план развития полиграфической промышленности Узбекской ССР,-"В помощь работникам местной печати» 1959, № 1.
19. "Советский Узбекистан сегодня" журналы 1978 йил, 1-сон (183). "Нам очень понравились ваши книги"